

“MAQSAD” KONSEPTINING INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZELOGIK IFODALANISHINING QIYOSIY-KOGNITIV XUSUSIYATLARI

Nasridinov Muxridin Vaslidin o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti “Ingliz filologiyasi” kafedrası

E-mail: mvnasridinov@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20756630>

Annotatsiya. Mazkur tezisda ingliz va o‘zbek tillarida “maqsad” konseptini ifodalovchi frazeologik birliklarning qiyosiy-kognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida maqsad, orzu, umid, niyat va intilish tushunchalarini ifodalovchi frazeologizmlar qiyosiy jihatdan o‘rganilib, ularning universal va milliy-madaniy xususiyatlari yoritib beriladi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maqsad konsepti har ikkala tilda ham insonning psixologik, ijtimoiy va madaniy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uning lingvistik voqelanishida umumiy va o‘ziga xos jihatlar mavjud.

Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, konsept, maqsad konsepti, frazeologizm, lingvomadaniyat, qiyosiy tilshunoslik, kognitiv metafora.

So‘nggi yillarda antropotsentrik paradigma doirasida til birliklarini inson tafakkuri, bilish jarayonlari va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq holda o‘rganishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bunday yondashuvning shakllanishida kognitiv tilshunoslik muhim ahamiyat kasb etib, u tilning inson ongidagi konseptual tizim bilan uzviy bog‘liqligini tadqiq etadi. Sh. Safarovning ta’kidlashicha, konsept inson tafakkurida mavjud bo‘lgan, ma’lum bir obyekt yoki hodisa haqidagi bilim, tajriba va baholashlarni o‘zida mujassamlashtiruvchi murakkab mental birlik hisoblanadi.

Inson hayoti maqsadlar, orzular va niyatlar tizimi bilan chambarchas bog‘liq. Har bir shaxs o‘z faoliyatini muayyan maqsadga yo‘naltiradi va o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishga intiladi. Shu bois “maqsad” konsepti inson konseptual olamining eng muhim kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Mazkur konsept turli tillarda turli til birliklari yordamida voqelanadi va ularning semantik, pragmatik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish qiyosiy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Frazeologik birliklar tilning milliy o‘ziga xosligini, xalqning dunyoqarashi va mentalitetini aks ettiruvchi muhim vositalardan biridir. Ingliz tilidagi “Wish come true”, “Keep hope alive”, “The sky is the limit”, “Build castles in the air”, “To ask for the moon” kabi iboralar maqsad, umid va orzu tushunchalarini ifodalasa, o‘zbek tilida ularga “Orzusi ushalmoq”, “Umidingni so‘ndirma”, “Ilojsiz narsaning o‘zi yo‘q”, “Hom xayolga berilmoq”, “Cho‘pchak” kabi muqobil variantlar mos keladi.

Qiyosiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, maqsad konsepti har ikkala tilda quyidagi semantik yo‘nalishlar asosida ifodalanadi:

1. **Maqsad – manzil** (maqsadiga yetmoq, reach one’s goals);
2. **Orzu – natija** (wish come true, orzusi ushalmoq);
3. **Umid – harakat manbai** (keep hope alive, umidingni so‘ndirma);
4. **Niyat – muvaffaqiyat omili** (good intentions, ezgu niyat).

Mazkur frazeologik birliklar insonning konseptual tizimida maqsad tushunchasi ko‘pincha yo‘l, manzil, harakat, ko‘tarilish va muvaffaqiyat metaforalari orqali anglashilishini ko‘rsatadi. G. Lakoff va M. Jonson ta’kidlaganidek, inson abstrakt tushunchalarni konkret tajribalar asosida idrok etadi. Shu nuqtai nazardan, maqsad konsepti ko‘pincha “MAQSAD – MANZIL”, “HAYOT – SAYOHAT” kabi konseptual metaforalar orqali tushuntiriladi.

Biroq tillar o‘rtasida ayrim lingvomadaniy tafovutlar ham mavjud. Ingliz tilidagi frazeologik birliklarda individual muvaffaqiyat, shaxsiy yutuq va kasbiy rivojlanishga urg‘u berilsa, o‘zbek

tilida ezgu niyat, sabr-toqat, jamoaviy manfaat va ma'naviy qadriyatlar ustuvorlik qiladi. Masalan, “The sky is the limit” iborasi inson imkoniyatlarining cheksizligini ifodalasa, uning o'zbekcha muqobili “Ilojsiz narsaning o'zi yo'q” iborasi insonning irodasi va har qanday mushkul vaziyatdan chiqish imkoniyatiga ishonchni aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, “maqsad” konsepti ingliz va o'zbek tillarida universal kognitiv tabiatga ega bo'lsa-da, uning frazeologik voqelanishida har bir xalqning milliy tafakkuri, madaniy qadriyatlari va tarixiy tajribasi o'z aksini topadi. Mazkur konseptni qiyosiy-kognitiv jihatdan tadqiq etish til va tafakkur, til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax, 2006.
2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.
3. Hoshimov G'. Kognitiv tilshunoslikda konsept nazariyasi va uning tasnifi masalalari.
4. Karamatova K. Proverbs. – Toshkent: Mehnat, 2000.
5. Nasridinov M., Norhujaev M. Comparative Typology of Verbal Means Expressing the Concept of “Goal” in Languages with Different Systems // Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture. – 2021. – №12. – B. 51–55.